

ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Anvar Rashidovich Meliboyev

Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor

Jizzakh Region National Center for Training Pedagogues in New Methods

Head of the "Preschool, Primary and Special Education Methods" Department

Zarnigor Bektemirova

2nd Stage Master's Student of JSPU Pre-School Education

ANNOTATION

Preschool educational organizations need to introduce advanced pedagogical and information technologies into the educational process and improve the efficiency of the educational process.

Keywords: information technologies, multimedia technologies, dialogue method, virtual information environment.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MASHG'ULOTLARNI O'TISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Anvar Rashidovich Meliboyev

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi

"Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari" kafedrasi mudiri

Zarnigor Bektemirova

JDPU Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish zarurligi ko'zda tutilgan.

Tayanch so'zlar: axborot texnologiyalar, multimedia texnologiyasi, dialog metodi, virtual axborot muhiti.

АННОТАЦИЯ

Дошкольным образовательным организациям необходимо внедрять в образовательный процесс передовые педагогические и информационные технологии и повышать эффективность образовательного процесса.

Ключевые слова: информационные технологии, мультимедийные технологии, диалоговый метод, виртуальная информационная среда.

Respublikamizda barkamol avlodni tarbiyalash, shakllantirish dastlab oilada, so'ngra maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 8-moddasida: "Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni nazarda tutadi" - deyilgan[1].

Maktabgacha ta'lim muassasalarida an'anaviy usulda ta'lim-tarbiya berishning shakli, mazmuni, metodi va metodikasi ko'pgina adabiyotlarda va jurnal sahifalarida bayon etilgan. Jumladan, ushbu masala P.Yusupovning "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi"[2] va boshqa manbalarda keng yoritib berilgan. P.Yusupova ta'lim shakli to'g'risida quyidagilarni yozadi: "Ta'lim shakli deganda, ta'lim beruvchi pedagog va bolalarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi va kun tartibida ma'lum bir vaqtda o'tkaziladi".

Adabiyotlarda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim metodlari bo'yicha ham qator fikrlar bildirilgan. Metod – ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning maqsadli ta'lim-tarbiya vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan o'zaro bog'liq faoliyatlarining izchil usullar tizimi hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish zarurligi ko'zda tutilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasidan foydalanishdagi muammolardan yana biri ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish zarurdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhlarida multimedia texnologiyasidan foydalanish, asosan, uch tomonlama amalga oshiriladi:

- 1) kompyuter va uning dasturlari yordamida didaktik vositalar (slayd, taqdimot, elektron ishlanma, qo'llanma va h.z.) tayyorlanadi hamda Internet va masofali ta'lim ashyolaridan foydalaniladi.
- 2) Kompyuter ishtirokida bevosita dialog metodi asosida bolalarga yangi material o'rgatiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, 6-7 yoshli bola talaba va o'quvchilar kabi kompyuterda mustaqil ishlashga qodir emaslar. Shuning uchun, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yangi materialni o'rganishda bevosita dialog metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu holda kompyuter didaktik vosita manbai rolini o'ynaydi.
- 3) Bilvosita dialog – virtual axborot (ta'lim) muhitida kompyuter bilan dialog asosida multimedia texnologiyasi amalga oshiriladi. Bunda bolalar tomonidan material mustaqil o'rganiladi, o'tilgan material mustaqil takrorlanadi, mashqlar mustaqil bajariladi, multimediali kompyuter o'yinlar mustaqil amalga oshiriladi va bola mashqlarni, kompyuter qo'ygan vazifalarni, o'yinlarni takror-takror bajarib, qo'yilgan mashg'ulot maqsadiga erisha oladi. Bu holda multimedia texnologiyasidan foydalanilganda kompyuter ta'lim manbai rolini o'ynaydi [4].

Mashg'ulot shakli. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhlarida multimedia texnologiyasidan foydalanishning asosiy va yetakchi shakli mashg'ulotdir.

Mashg'ulotlar Davlat talablari asosida belgilangan dasturlar, yo'nalishlar, taqsimlangan soatlar va shular asosida tarbiyachi (yoki pedagog) tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan rejalari asosida olib boriladi [3].

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda mashg'ulotlar yangi materialni o'rgatishga (yoki mustahkamlashga) qaratilgan, tekshiruvchi-sinovchi, majmuaviy "sayohat" yoki "ekskursiya" va kompyuterli o'yin shakllariga bo'linadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda o'tkaziladigan mashg'ulotlar maktabga tayyorlov guruhlarida kompyuterdan foydalanib o'tkazilishni hisobga olib, 30 daqiqaga mo'ljallanadi va asosiy uchta bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqich 15 daqiqa davom etadi. Bu vaqt davomida tarbiyalanuvchilarga asosiy ma'lumot beriladi.

Birinchi bosqich tugagach (15 daqiqadan so'ng) tarbiyalanuvchilarning kompyuterlardan foydalanishlari 15 daqiqadan oshmasligini hisobga olib, 15-20 daqiqali oraliq (dam olish bosqich)i o'tkaziladi. Ushbu 15-20 daqiqali oraliqda o'rganiladigan material bo'yicha qiziqarli o'yinlar o'tkaziladi, she'rlar, ashulalar aytiladi, rasm chizdiriladi, A harfini yoki 1 raqamini qog'ozda yozish o'rgatiladi. So'ngra mashg'ulotning uchinchi bosqichi boshlanadi. Bu bosqichning davomiyligi ham 15 daqiqadan iborat bo'ladi. Bu bosqichda, asosan, birinchi bosqichda o'rganilgan materiallar mustahkamlanadi, tarbiyalanuvchilarning kompyuter savodxonligini oshirish davom etadi va ularning bilimi baholanadi. Agar, birinchi bosqichda rejalashtirilgan materiallarning to'la o'rganilishi ulgurilmasa, u 3-bosqichda davom ettirilishi mumkin.

Mashg'ulotlarning kompyuterli "Sayohat" va "Ekskursiya" shakli. Bu shaklda tarbiyachi ekologiya (atrof-muhitni muhofaza qilish)ga oid materiallarni o'rganilayotganda bolalarni o'simlik dunyosi va uy hayvonlari bilan tanishtirishda, bolalarni sayohatga olib chiqishi shart emas. Buning uchun kompyuter xotirasi va Internet ashyolaridagi mavzuga tegishli materiallarni birin-ketin ko'rsatishi vaizohlashi lozim. Material kompyuterda yoki Internetda bo'lmasa, bolalar dalaga sayohatga olib chiqiladi.

Mashg'ulotning o'yin shakli. Bolalarga kompyuterli ta'limiy o'yinlar orqali ham bilim berish mumkin, masalan "Kim birinchi topadi?" o'yinida ekrandagi turli tartibda joylashtirilgan rangli tasvirdagi sonlardan qaysi bir katta, qaysi biri kichikligini aniqlash, ekrandagi rangi o'xshash predmetlardan qaysi biri katta, qaysi biri kichikligini aniqlash, shuningdek, rasmlardan keraklisini topish kabi topshiriqlar bajariladi.

Yangi materialni multimediali kompyuter asosida o'rganishdagi mashg'ulotning algoritmi:

1. Tarbiyachi(pedagog) bolalarni kompyuter ro'parasiga joylashtiradi.
2. Kompyuter xotirasiga joylashtirilgan materiallarni monitor ekraniga chiqaradi.
3. Bolalarning diqqati ekranga chiqqan materialga qaratiladi.
4. Tarbiyachi va bolalar o'rtasida dialog (savol-javob) boshlanadi.
5. Bolalar tarbiyachi (pedagog) bergan topshiriqni mustaqil bajaradi.
6. O'rganilgan material mustahkamlanadi.
7. Bolalarning mashg'ulot davomida olgan bilimi baholanadi.
8. O'rganilgan material bo'yicha uyga topshiriq beriladi.

Mashg‘ulot mazmuni. Multimedia texnologiyasidan foydalanib o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar kompyuter texnologiyasiga asoslanadi. Shuning uchun, multimedia texnologiyasiga asoslangan mashg‘ulotlarni kompyuter mashg‘uloti deb ham atash mumkin. Kompyuterli mashg‘ulotlarning aksariyati birlashgan mashg‘ulotlar shaklida o‘tkaziladi.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, mashg‘ulot mobaynida tarbiyalanuvchilarning kompyuter oldida 15 daqiqadan ortiq o‘tirishi mumkin emasligi e‘tiborga olinishi kerak. Kezi kelganda shuni ta‘kidlash kerakki, “Maktabgacha yoshdagi bolalar ta‘lim–tarbiyasiga qo‘yilgan Davlat talablari”da ham bolaning kompyuterda shug‘ullanishi 15-20 daqiqa etib belgilangan. 15 daqiqaga rejalashtirilgan material o‘tib bo‘lingach, 15-20 daqiqali oraliq (dam olish) bosqichi o‘tkaziladi [4].


Ushbu oraliq (dam olish) bosqichida tarbiyalanuvchilarning toliqishini hisobga olib, kompyutersiz amalga oshiriladigan mashg‘ulot o‘tkaziladi. Kompyutersiz o‘tkaziladigan ushbu oraliq mashg‘ulotlarda, mavzuga tegishli og‘zaki savol-javoblar, topishmoqlar, turli mazmundagi o‘yinlar, amaliy tadbirlar (masalan, qaychi bilan harflar qirqish, qog‘ozda 5 gacha raqamlarni yozishga o‘rgatish) o‘tkaziladi. Shuningdek, she‘r, ashula aytiladi va jismoniy mashqlar bajariladi. Jumladan, ko‘z toliqishini bartaraf etuvchi ko‘z gimnastikasi – bir necha daqiqa davomida ko‘zni ochib yumish, xonaning burchaklariga navbatma-navbat nazar tashlash kiradi. Oraliq bosqichdan so‘ng yana 15 daqiqali asosiy mashg‘ulot davom ettiriladi. Shunday qilib, Maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridagi kompyuterli mashg‘ulotlar, oraliq bosqichdagi materiallar bilan birga birlashgan mashg‘ulotlar sirasiga kiradi.

Ta‘lim metodlari. Kompyuterli ta‘limda ham pedagogikaning namoyish etish va amaliy usullaridan foydalangan holda, maktabgacha ta‘lim tashkiloti bolalariga yangi materiallarni o‘rgatish jarayonida bevosita dialog metodidan foydalaniladi.

Yangi materialni o‘rgatishga qaratilgan kompyuter ishtirokidagi bevosita dialog metodi – maxsus dasturlar asosida tayyorlanib, kompyuter xotirasiga kiritilgan materiallar va didaktik vositalar orqali amalga oshirilgan mashg‘ulotlarga tatbiq etiladi.

Yangi bilim berishda bevosita dialog metodidan foydalanishni maktabga tayyorlov guruhi bolalarining yoshlari (6-7), ularning fikrlash darajalari va boshqa xususiyatlarini e‘tiborga olishni taqozo etadi. Bevosita dialog metodidan foydalanilgan holda kompyuter didaktik vositalar manbai rolini o‘ynaydi.

Kompyuter ishtirokidagi dialogli metodning sxemasi quyidagi rasmda keltirilgan.



1- rasm. Kompyuter ishtirokidagi dialog metodining sxemasi

Sxemada 1 va 2-chiziq tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi dialogni bildiradi. 3- tarbiyachining kompyuterga kiritgan multimediali materialini va uni boshqarishini, 4- tarbiyalanuvchilar tomonidan yangi va o‘tilgan mashq (material)larni mustaqil bajarishlari va test savollariga javob berishlarini bildiradi.

Bolalar tomonidan material mustaqil o'rganilgan (yoki mustaqil takrorlangan)da, mashqlar mustaqil bajarilganda, kompyuter o'yinlari amalga oshirilganda kompyuter ishtirokidagi bilvosita dialog (virtual axborot muhitidakompyuter bilan dialog) metodidan foydalaniladi [5]. Virtual axborot muhitida kompyuter bilan (bilvosita) dialog metodining algortmi:

1. Bola dasturda ko'rsatilgan tugmachalardan topshiriqqa mosini tanlaydi.
2. Kompyuter bola (tarbiyalanuvchi)ga – topshiriq, savol, mashqni bajarishyoki o'yinni bajarishni buyuradi.
3. Bola (tarbiyalanuvchi) topshiriqni bajaradi.
4. Kompyuter topshiriq bajarilishining to'g'ri yoki noto'g'riligini bildiradi.
5. Noto'g'ri bo'lsa, takroriy bajartiradi.
6. Kompyuter bolaning bilimni baholaydi.

Kompyuterda ishlovchi bola mashqlarni va kompyuter qo'ygan vazifalarni, o'yinlarni takror-takror bajarib, maqsadiga erisha oladi, chunki kompyuter – “bag'ri keng” va “toqatli, sabrlidir”. Bola xato qilgan taqdirda ham xatoni o'zi tuzatgunga qadar hech kim unga tanbeh bermaydi. Ammo bolalar kompyuterda mustaqil ishlagan hollarda ham ularning harakatlari doimo tarbiyachi nazoratida bo'ladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni 2020 yil 23 sentabr.
2. Ашуров, М. Ў.; Ашурова, М. М. (2020). Математика ўқитишда замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш. Ўзбекистонда илмий амалий тадқиқотлар, 1(1), 254-256.
3. Artikov, A. (2020). About some methodological problems in teaching special sciences. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(7), 379-384.
4. Ашуров, М. У., Ашурова, М. М., Жумабаев, Р. Б., & Тождидинова, Д. Ф. (2016). Академик лицей ва касб-хунар коллежлари ўқувчиланинг дастурлаш кўникмаларини шакллантириш. In Конференция (Vol. 2, No. 2, pp. 96-97).
5. Babakhodjayeva, N. M. (2020). Visualizers of algorithms as effective means of information technologies in education. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research, 6(9), 421-425.
6. Babakhodjayeva, N. M. (2020). Program-methodological complex as a means of improving the quality of learning in higher educational institutions. Theoretical & Applied Science, (7), 166-171.
7. Kadirova, Z. Z. (2021). Some comments on the interpretation and contrast aspects of the terms “Paraphrase” and “Periphrase”. Theoretical & Applied Science, (6), 486-489.
8. Kadirova, Z. Z. (2019). Principles of differentiation of periphrasal and euphemic units. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 269-273.
9. Kadirova, Z. Z. (2021). Alisher Navoiyning nasriy asarlarida insonga xos xususiyatlarni ifodalovchi perifrazalar. Ilm sarchashmalari, 2(2), 176-178.
10. Umarova, A. I., Miskino, S. Z. (2022). Cluster approach to the educational process in the organization of preschool education. International Conference on Social and Humanitarian Research, 1(2), 74-76.

11. Тригулова, А. Х., Қимсанов, О. (2021). Музыкальные способности и их значение в процессе обучения учащихся музыкальных школ. *Uchinchi renessans davrida maktabgacha ta'lim-tarbiyaning roli*, 2(4), 50-53.
12. Kimsanov, O. (2021). Developing musical skills in the process of studying large-scale works in art school students. *Science and Education*, 2(12), 597-601.
13. Trigulova, A. K., & Kimsanov, O. (2021). Musical sense of hearing and methods of its development in the process of piano performance. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 1002-1004.
14. Умарова, А. И., Мискинова, С. З., Қимсанов, О. (2022). Таълим технологиялардан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари ва аҳамияти. *Ўzbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar*, 2(9), 207-210.
15. Умарова, А. И., Абдалова, С. Р., Мискинова, С. З. (2022). Таълим оловчиларни етакчилик қобилиятларини аниқлаш ва ташхислаш. *Ўzbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar*, 2(9), 203-206.
16. Eshmuminov, A. (2019). Problems of creating national corpus of the uzbek language. level of synonyms. *Theoretical & Applied Science*, (5), 47-50.
17. Eshmuminov, A. (2022). The study of the meronymic phenomena in linguistics. Барқарорлик ва етакчи тадқиқотлар онлайн илмий журнали, 2(4), 265-266.
18. Umarova, A. I. (2022). Children with development problems music education and correction rhythmic. *Экономика и социум*, 95(4), 507-510.